

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN  ACCESS

 **ULRICHSWEB™**
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

 Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

 OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

The BASE logo consists of the word "BASE" in a bold, black, sans-serif font, preceded by a stylized orange arrow icon pointing to the right.

 Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



TOSHKENT DAVLAT



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamlı kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktabalaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в Узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрович	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditni uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimalilibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления Машарипова Шахло Адамбаевна	366
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	372
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия Tajibayeva Kizlulgul Ajiniyazovna	376
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea Umidjan R. Nazarkulov	383
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari Jalolova Madina Shopo'lat qizi	388
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) Xudoyerova Mehrangiz	393
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	400
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .. Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	408
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish..... Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ichihev Oybek Ulug'bek o'g'li	414
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati..... G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	419
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar..... Mirzaxmedova A. A.	427
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .. Mirzaxmedova A. A.	432
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar .. Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	437
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari..... Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	442
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari .. Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	447
Progression of Small Business and Entrepreneurial Activity in Uzbekistan .. Dauletbaeva Ulzada Bakhadirova	450
Raqamli moda dizayni va ishlab chiqarish usuli uchun clo3D ma'lumotlar bazasi .. Temirova Gulnoz Ibodovna, Esanova Ma'rifikat G'ayratovna	454
Xususiy ta'lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirishning amaliy jihatlari .. Karimov Ulug'bek Usmonovich	459
Global iqtisodiyotda bank tizimini raqamlashtirishning ahamiyati..... Karimova Komila Daniyarovna, Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi	465
Dasturiy vositalarning o'zaro muvofiqlikda ishslash metodlari va algoritmlari tahlili .. Oybek Allamov, Boburbek Babajanov, Jahongir Bekturdiyev	470
Mamlakatimizdagи tijorat banklari aktivlarini boshqarishning amaldagi holati tahlili .. Baxriddinov Sharofiddin	475
Surxondaryo viloyati hududlarida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiy rivojlanish dinamikasiga ta'siri Normurodov Alibek Anvar o'g'li	483



Методика выбора оптимальной стратегии обеспечения финансовой безопасности текстильных предприятий	489
Турсунов Бобир Ортиклимирзаевич	
Кимысонаат корхоналарда “тежамкор ишлаб чиқарыш” концепсиyasини тадбиқ etish samaradorligi tahlili	494
Гулбайева Феруза Исламовна	
Бuxoro shahar hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	499
Акрамов Донiyor Rustam о'g'ли, Усмонов Мурадхан Saidmaxmudovich	
Aksiyadorlik jamiyatlari qarz kapitalini boshqarish siyosatining muvozanatlashgan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'siri	503
Курбонов Xayrilla	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va xorijiy tajribalar	510
Расурова Мухаббат Тешабаевна, Нормуродов Сарвар Норбой о'г'ли	



O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA XORIJY TAJRIBALAR

Rasulova Muxabbat Teshabayevna

katta o'qituvchi

Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

assistent, mustaqil izlanuvchi,

Toshkent davlat agrar universiteti (TDAU)

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati va mamlakatimizda turizm sohasini rivojlanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilgan. Rivojlangan xorijiy davlatlarning huquqiy qiyosiy tahlili hamda ilg'or tajribasi asosida yurtimizda turizmni rivojlanishish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, viza, vizasiz rejim, sayyoohlar, infratuzilma, gidlik faoliyati, xorijiy davlatlar, qonun va qonunosti hujjatlar.

Abstract: This article analyzes the importance of tourism in economic development and examines the efforts undertaken in our country to develop the tourism sector. Based on the legal comparative analysis and best practices of developed foreign countries, proposals for improving tourism in our country are presented.

Keywords: tourism, visa, visa-free regime, tourists, infrastructure, guiding activities, foreign countries, laws and legal documents.

Аннотация: В данной статье анализируется значение туризма в развитии экономики, а также рассматривается проводимая в нашей стране работа по развитию туристической отрасли. На основе правового сравнительного анализа развитых зарубежных стран и передового опыта изложены предложения по развитию туризма в нашей стране.

Ключевые слова: туризм, виза, безвизовый режим, туристы, инфраструктура, экскурсионная деятельность, зарубежные страны, законы и подзаконные акты.

KIRISH

Jahonda turizm sohasi barcha infratuzilmalarni rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga asoslangan bo'lib, bu holat uni iqtisodiyotning yuqori rentabelli tar-mog'iga aylantiradi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning ilk kunlaridanoq turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi korxonalarga imtiyozlar yaratish, shuningdek, turizm uchun zarur infratuzilmani shakkantirish borasidagi ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston 1993-yil 4-oktabrda Butunjahon turizm tashkilotiga Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo'lib a'zo bo'lgan. Bu holat o'z navbatida mamlakatda xalqaro turizmni rivojlanishiga ijobiy turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmonida belgilangan1 "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlanishish konsepsiysi"ga muvofiq, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayrboshlash, yo'lovchi tashish va investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash, shuningdek, xorijiy aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamizda turizmni rivojlanish yuqori iqtisodiy samaradorlik keltirishi aniq, chunki u xorijga resurs (paxta, gaz, neft) chiqarilmasdan valyuta tushumini ta'minlaydi. Tahlillar ko'rsatishicha, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasi boshqa tarmoqlarga qaraganda ancha ko'proq valyuta tushumlarini keltiradi. Masalan, Turkiya yiliga 4–5 milliard dollarlik tovar eksport qilsa, turizm faoliyatidan 10 milliard dollardan ortiq daromad oladi. Avstriya, Angliya, Italiya, Fransiya va Ispaniyada ham shunga o'xshash yuqori ko'rsatkichlar kuzatilmoqda.

Mazkur soha mutaxassislari sayyoqlik va turizmni iqtisodiy rivojlanishning drayveri — harakatlantiruvchi kuchi, deb baholamoqdalar. Ushbu sohalar yangi ish o'rnlari yaratish bilan birga (ICAO ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda har 10 ish o'rningning bittasi turizmga to'g'ri kelgan) ijtimoiy rivojlanishga ham katta hissa qo'shadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son <https://lex.uz/uz/docs/-4143188>



Turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Mazkur faoliyat Toshkentdagi yirik mehmonxonalaridan tortib, Samarqanddagi kichik xostellar, xalqaro aeroportlardagi butiklar, Buxoro va Xivadagi hunarmandchilik do'konlarigacha bo'lgan keng sohani qamrab oladi. Bu jarayon fuqarolarda iqtisodiy ko'nikmalarni shakllantiradi, bilim ufqlarini kengaytiradi. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar, jumladan, eng rivojlangan 10 ta davlat barcha sa'y-harakatlarini xorijiy sayyoohlarni jalb etishga yo'nalimoqda. Turizm, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun valuta oqimini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda turizm sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda rivojlangan davlatlar olimlari turizmnинг iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ekologiya va boshqa tarmoqlarga ta'sirini chuqur o'rganishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. Ushbu izlanishlarda, xususan, ijtimoiy kapitalning turizm yo'nalishida olib borilayotgan siyosatga qanday mos kelishi masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

Mazkur masalani yoritishda AQShning uchta shtatida, shuningdek, Avstraliya va Okeaniya mintaqasi davlatlarida 74 nafar manfaatdor tomon ishtirokida olib borilgan tadqiqot natijalari e'tiborga molikdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kapital va turizm sohasi o'ttasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, ijtimoiy kapitalning o'sishi turizm sohasining rivojlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kujel Yu. o'zining darsligida turizmnинг mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi rolini yoritgan. Muallif turizmni eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida ko'rsatib, unga strategik darajadagi e'tibor qaratish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Rossiyalik olimlar N. Morozova va M. Morozov zamonaviy turizm industriyasida kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan yuzaga kelgan keskin o'zgarishlarni tahlil qilganlar. Ularning fikriga ko'ra, bugungi kunda har qanday turistik tashkilot zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan turib turizm bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi.

N. Xaydarov esa mamlakatda ta'lif sohasiga xorijlik talabalarni faol jalb etish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, chet ellik talabalar o'zlarining to'rt yillik o'qish davrida turistik faoliyatga xos hayot tarzini olib boradilar. Ularning ota-onalari va yaqin qarindoshlari ham ularni ko'rish maqsadida mamlakatga kelib-ketishlari orqali turizm salohiyati yanada kengayadi.

Tahlil etilgan mutaxassislar fikridan kelib chiqilsa, turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barcha sektorlariga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekistonning turizm salohiyatini rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yuzaga chiqarish va mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali jahon hamjamiatiga keng tanishtirish muhim vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida turizmnı rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Turizm sohasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, qiyosiy tahlil va sintez kabi ilmiy-tadqiqot usullaridan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Jahon Turizm Tashkiloti (United Nations World Tourism Organization – UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm va mehmondo'stlik industriyasi 2017-yilda jahon yalpi ichki mahsulotining 10,4 foizini (bu ko'rsatkich 8,3 trillion AQSh dollariga teng), investitsiyalarning 7 foizini, soliq tushumlarining 5 foizini va jahon iste'molchilik xarajatlarining 11 foizini tashkil etgan. Shuningdek, yaratilgan har 16 ta yangi ish o'rnining bittasi aynan ushbu sohaning hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu tarmoqda aholining bandlik darajasi 2016-yilga nisbatan 103 foizga oshgan bo'lib, 2017-yilda bevosita turizm va sayyoqlik sohasida 118,4 million nafar kishi (jahon umumiyligi bandligining 3,8 foizi) ish bilan band bo'lgan. Bilvosita esa, ya'ni turizmga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlarni inobatga olgan holda, bu ko'rsatkich 313,2 million kishini tashkil etgan [7].

So'nggi yillarda Gruziya turizm sohasi bo'yicha ulkan yutuqlarga erishgan. Xususan, mamlakat chet ellik sayyoohlarni sonini uch baravarga oshirgan. Bunga sabab sifatida Gruziyaning ajoyib milliy taomlari, boy madanisi, mehmondo'st va hayotsevar xalqi bilan birga, ko'plab mamlakatlar uchun vizani bekor qilgani keltiriladi. Mazkur chora sayyoohlarni oqimini sezilarli darajada oshirgan. Avvallari yillik sayyoohlarni soni 100 mingdan kam bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 6,5 million kishiga yetgan. Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismi 2006-yilda 32,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib bu ko'rsatkich 1,63 foizgacha qisqargani kuzatilgan. Mustaqil tahlilchilarning fikriga ko'ra, bu natjalalarga asosan turizm sohasining rivojlanishi sabab



bo'lgan. Natijada 2018-yilda Gruziyaning yalpi ichki mahsuloti 7,5 foizga o'sgan [2].

O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning hududiy tuzilmalari shtat birliklarining kengaytirilgani, hududlarda turizm departamentlari va boshqarmalari, shuningdek, hokim o'rinnbosarlari lavozimlarining joriy etilgani, ushbu sohada muvofiqlashtiruvchi institatlarning salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatda sohaning hozirgi rivojlanish bosqichidan kelib chiqib, yangi tushunchalar kiritilgan, turizm bo'yicha davlat siyosatining prinsiplari va asosiy yo'nalishlari belgilangan. Shuningdek, turistik faoliyat subyektlari aniq toifalarga ajratilgan.

Qonun doirasida 47 ta davlat fuqarolari uchun viza rejimi bekor qilinib, vizasiz rejimga ega davlatlar soni 86 taga yetkazilgan. Bundan tashqari, viza olish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida 57 ta mamlakat fuqarolari uchun elektron viza olish imkoniyati joriy etilgan (1 va 2-jadvallar bilan tasdiqlangan).

1-jadval: Sayyoqlik kompaniyalari va tashkilotlaridagi ishchilar soni (kishi hisobida)
(Численность работников в туристских фирмах и организациях, человек)

Yil	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami (o'rindoshlarsiz) – umumiylar soni (bez sovmestitele).	1 945	2 061	2 486	2 920	2 330	1 956	2 793	3 490
Ulardan (iz nix):								
Erkaklar (mujchiny), ayollar (jenshchiny).	1 048	1 087	1 523	1 695	1 324	1 128	1 837	2 241
Ayollar (jenshchiny).	897	974	963	1 225	1 006	828	956	1 168
Iz umumiylar sonidan ma'lumotga ega bo'lganlar:								
Oliy – высшее (ya'ni, oliy ma'lumotlilar).	1 182	1 223	1 295	1 595	1 229	1 048	1 285	1 862
Shu jumladan kasbiy sayyoqlik ta'limga ega bo'lganlar (iz nix – professionalnoye turistskoye).	278	310	304	404	249	246	256	379
O'rta maxsus (sredneye spetsialnoye) ma'lumotlilar,	657	756	790	1 175	935	716	1 345	1 344
Shu jumladan kasbiy sayyoqlik ta'limga ega bo'lganlar.	84	91	110	134	88	72	125	122
Boshqalar (drugoye).	106	82	401	150	166	192	163	203
O'rindoshlar (sovmestiteli).	234	51	280	313	157	158	342	387
Xodimlarni sayyoqlik sohasida o'qitish bilan bog'liq xarajatlar, ming so'mda – Zatraty na obuchenie personala v sfere turizma, tys. sum.	133 220,6	109 963,2	347 645,4	534 825,5	214 835,4	74 649,0	-	-

2-jadval: Mintaqalar bo'yicha sayyoqlik kompaniyalari va tashkilotlarida ishchilar soni (kishi)

Yil	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	1 945	2 061	2 486	2 920	2 330	1 956	2 793	3 490
Shu jumladan								
Qoraqalpog'iston Respublikasi (Республика Каракалпакстан)	11	9	18	16	23	18	28	28
Andijon viloyati (Андижанская область)	24	18	28	34	30	11	41	93
Vuxoro viloyati (Бухарская область)	20	55	92	126	41	52	145	137



Jizzax viloyati (Джизакская область)	12	12	16	17	19	24	36	50
Qashqadaryo viloyati (Кашкадарьинская область)	10	16	17	19	12	24	18	20
Navoiy viloyati (Навоийская область)	4	4	2	8	10	22	33	41
Namangan viloyati (Наманганская область)	4	4	3	10	37	7	18	35
Samarqand viloyati (Самаркандинская область)	353	274	392	376	318	311	329	604
Surxondaryo viloyati (Сурхандарьинская область)	15	15	22	12	51	6	28	49
Sirdaryo viloyati (Сырдарьинская область)	2	2	2	2	6	4	4	5
Toshkent viloyati (Ташкентская область)	13	19	51	158	136	45	16	161
Farg'ona viloyati (Ферганская область)	19	65	67	50	40	58	38	141
Xorazm viloyati (Хорезмская область)	187	195	199	322	311	315	333	373
Toshkent shahri (r. Ташкент)	1 271	1 373	1 577	1 770	1 296	1 059	1 726	1 753

Qo'shimcha ravishda, "Vatandosh", "Talaba", "Akademik", "Ziyoratchi" va "Tibbiyat" viza turlari joriy etildi. Qilingan ishlar natijasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr bilan solishtirganda, 2019-yilda mamlakatimizga kelgan sayyohlar soni 26,2 foizga ko'paydi. Vizasiz rejim joriy etilgan davlatlardan tashrif buyurgan sayyohlar sonida esa 58 foizlik o'sish kuzatildi. Natijada, sayyohlarni joylashtirish maskanlarining yuklanish darajasi 62 foizdan 84 foizga yetdi.

Oxirgi yillarda turizm sohasidagi yangi tendensiyalarga mos va keng segment talablariga javob beradigan xostellar bozorini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda, 2019-yilda mamlakatda kam byudjetli turizm infratuzilmasi va xostellar biznesini yanada rag'batlantirish uchun xostellarni majburiy sertifikatsiyalash tartibi bekor qilindi va boshqa bir qator talablar soddalashtirildi. 2019-yilning o'zida respublikada 161 ta yangi xostel qurilib, foydalanishga topshirildi. Ular tomonidan bir vaqtning o'zida 5 666 nafar sayyohga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratildi [9].

Olingan natijalar muhokamasi. Turizmni rivojlantirish omillariga chiptalari arzon bo'lgan aviakompaniyalar — loukosterlar (low-costers) ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Polshada turizm rivojlanishiga aviakompaniyalarning ta'siri o'r ganilganda, tadqiqot natijalariga ko'ra, loukosterlar unchalik mashhur bo'lmagan joylarda turizmni rivojlantirishga hissa qo'shgan, shuningdek, kichik shaharlarda ushbu sohaning taraqqiy etishiga xizmat qilgan. Mazkur tadqiqotda boshqa omillar ham o'r ganilgan. Masalan, qishki turizmga nisbatan talabning yuqori darajasi, hamda yangi yo'naliishlarga xizmat ko'rsatuvchi loukosterlarning yangi marshrutlari paydo bo'lgani sababli 2005-yilda Norvegiyaga keluvchi sayyohlar soni keskin oshgan. Shu yili turizm manzillari orasida ulkan muvaffaqiyat qozongan shaharlar sifatida Valensiya, Barselona (Ispaniya) hamda Dubrovnik (Xorватия)ni misol keltirish mumkin. Sayyohlar sonining jadal oshishiga chipta narxlari past aviakompaniyalar sonining ko'paygani sabab bo'ldi. Natijada, Buyuk Britaniyadan keluvchilar soni ikki barobar ortdi.

Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha mayjud imkoniyat va sharoitlardan samarali foydalanishda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Xususan, xalqaro turizm yo'naliishida respublikaga tashrif buyurv-chilarning talab-ehtiyojlari hali hanuz to'liq qondirilmayapti. Buning asosiy sabablaridan biri, turizm sohasida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, turizmni davlat tomonidan boshqarishning samarali usullarini joriy qilish bilan bog'liq muammolarning chuqur o'r ganilmaganligidir.

Mazkur tadqiqot doirasida, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tartibga solishga oid qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarining tahlili quyidagi muammo va nomuvofiqliklarni aniqlash imkonini berdi:

Turizm sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarda xizmat ko'rsatuvchi gidlar faoliyati, ularga qo'yiladigan talablar, ularni sertifikatlashtirish hamda malakasini oshirish bo'yicha ayrim tartiblar ishlab chiqilgan. Biroq mustaqil tarzda gidlik faoliyati bilan shug'ullanish, ularga qo'yiladigan talablar, huquqiy maqomi va malaka oshirish masalalari biror yuridik hujjatda alohida yoritilmagan.

Turistlarga mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, tarixiy shaxslar, davlat hududiy va ma'muriy tuzilishi, urfodat va an'analar haqida ma'lumot beruvchi gid-tarjimonlar tomonidan beriladigan ma'lumotlarning to'g'riligi



uchun shaxsan javobgarlik masalasi va bunga oid jazo chorasi qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilmagan.

Yuqoridagi kamchilik va nomuvofiqliklarni bartaraf etish, bevosita turizm sohasining yanada rivojlanishi hamda huquqiy asoslarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Avstriya Respublikasining turizm tizimi va sohani davlat tomonidan huquqiy tartibga solish tajribasi o'rganildi hamda O'zbekiston Respublikasi uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Avstriya Federativ Respublikasi Markaziy Yevropada joylashgan bo'lib, 9 ta federal hududdan iborat. U turizm sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan biri sanaladi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YALM) 35 foizi turizm sohasi hissasiga to'g'ri keladi [11]. Vena va Zalsburg shaharlari eng yirik turistik markazlar hisoblanadi. Avstriyada turizm sohasini huquqiy tartibga soluvchi yagona federal qonun mavjud emas. Biroq har bir federal hudud o'z qonuni va qonun osti hujjatlari asosida harakat qiladi. Turizm sohasidagi tartibga solish ishlari asosan soliq, bojxona, xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlar qonunchiligi orqali amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan turizmni huquqiy tartibga solish borasidagi asosiy hujjat — "Yevropa turizmini raqobatbardosh va barqaror tarzda rivojlantirish bo'yicha" Yevropa Ittifoqi dasturi hisoblanadi. Avstriya Yevropa Ittifoqi a'zosi sifatida mazkur dastur ijrosini ta'minlaydi [11].

Turizm sohasi Avstriyada ikki asosiy tashkilot tomonidan boshqariladi:

Avstriya Milliy Turizm Tashkiloti (Austrian National Tourist Office — Österreich Werbung) — mamlakatdagi turizm marketingi va strategik rejalashtirishga javobgar.

Avstriya Iqtisodiyot, Oila va Yoshlar vazirligi (Ministry of Economy, Family and Youth) — sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tartibga solish, nazorat qilish va moliyalashtirish vazifalarini bajaradi [12].

Turizmni rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturda quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

Soliq imtiyozlari, subsidiya va dotatsiyalar;

Huquqiy bazani takomillashtirish;

Viza cheklarini kamaytirish;

Narxlarni tushirish va mavsumdan tashqari davrlarda turizmni rag'batlantirish;

Ijtimoiy turizmni qo'llab-quvvatlash;

Turistlar xavfsizligi bo'yicha talablarni kuchaytirish;

Atrof-muhit, madaniy va tarixiy merosni muhofaza qilishga oid qonunchilikni mustahkamlash [13].

Mazkur taqqoslashlar asosida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

Avstriyada turizm sohasini boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi aniq va o'zaro ziddiyatli emas. Vazirlilik tartibga soluvchi organ, milliy turizm tashkiloti esa uslubiy va marketing bo'yicha vakolatli hisoblanadi.

Xorijiy va ichki turizm harakatlari tartibga solinadigan alohida aktlar mavjud.

Gidlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirish bo'yicha talablarga muvofiq har yili tasdiqlanadigan reglament mavjud.

Gid-tarjimonlarning ma'lumotlar uchun shaxsan javobgarligi Avstriya qonunchiligidagi ham to'liq yoritilman.

Xulosa qilib aytganda, Avstriyada turizm sohasining barqaror rivojlanishiga davlat tomonidan keng ko'lamli huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar yaratilgan. Bunga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: xorijiy valyutadagi daromadlarning 20 foizigacha soliqdan ozod qilinishi [14], nazorat mexanizmlarining soddalashtirilgili, sohaga tayyorlanayotgan kadrlarning yuqori sifati, barqaror strategik rejalarining mavjudligi va jamiyatning barcha qatlamlarining turizm rivojida faol ishtiroti.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda "Yevropaning aqlii turizm poytaxti" tashabbusi (The European Capital of Smart Tourism initiative) ilgari surilmoqda. Ushbu tashabbus "aqlii turizm" vositalari va chora-tadbirlarini qamrab oladi hamda shaharlarda to'rtta toifa bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalardan xabardorlikni oshirishni nazarda tutadi: barqarorlik, nogironligi bor insonlar uchun maxsus imkoniyatlar yaratish, raqamlashtirish, madaniy meros va ijodkorona yondashuv. Turizmni rivojlantirish strategiyasi mahalliy hamjamiyatlarni mazkur soha orqali qanchalik ko'p qo'llab-quvvatlasa, mamlakatda turizm shunchalik barqaror bo'ladi. Olinadigan daromadlardan foydalanishning eng yaxshi yo'llari — yodgorliklarni ta'mirlash, hamjamiyatni qo'llab-quvvatlash, odamlarga huquq va imkoniyatlar berish hamda kambag'allik darajasini pasaytirishdir. Barqaror turizm nafaqat mehmonlarning, balki ularga mezbonlik qiluvchi shaharlarning xavfsizligini ta'minlashi, atrof-muhitning ifloslanishi va aholi tiqilinch bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Turistlar oqiminiadolatli taqsimlash ham barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. Bu rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun birdek dolzarb masaladir. Xulosa sifatida, o'rganilgan xorijiy tajriba, egallangan nazariy bilimlar hamda bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish natijasida ishlab chiqilgan quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tamiz: O'zbekiston Respublikasida mahalliy turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakat hududida harakatlanuvchi sayyohlarning harakatlanish tartibi, ularga yaratib beriladigan sharoitlar va imtiyozlar bo'yicha alohida hujjat ishlab chiqish



va tasdiqlash; Turizm sohasida faoliyat yurituvchi gidlar malakasini oshirish, ularning ko'nikma va bilimlarini baholash bo'yicha maxsus dasturiy tizim yaratish, bunda gidlarni imtihonlardan o'tkazish va malakasini oshirish ishlarida inson omilini imkon qadar cheklashga qaratilgan alohida loyiha ishlab chiqish va amalga oshirish; Mustaqil gidlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda gid-tarjimonlar tayyorlash uchun maxsus o'quv markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish, bu jarayonga nodavlat-notijorat tashkilotlarini keng jalb etish; Turistlarga mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, tarixiy shaxslar, davlatning hududiy va ma'muriy tuzilishi, shuningdek, urf-odatlar va an'analar to'g'risida ma'lumot beruvchi gid-tarjimonlar tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va asoslanganligi uchun javobgarlik masalasini turizm qonunchiligidagi aniq belgilash hamda ularga beriladigan jazo turini O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksda mustahkamlash; Turistik tashkilotlar tomonidan xorijiy valyutalarning O'zbekistoniga kiritilishini rag'batlantirish maqsadida ularga soliq imtiyozlari berish, ya'ni ularning xorijiy valyutadagi daromadlarining ma'lum qismini soliqlardan ozod qilish; bu tadbirkorlarning sohaga yanada ko'proq investitsiya ajratishiga olib keladi; O'zbekiston Respublikasida turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini qayta ko'rib chiqish va yanada soddallashtirish; Turizm sohasini rivojlantirish uchun sektorlararo munosabatlarni tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi me'yoriy huquqiy hujjatlarni yaratish; bunda soha rivojida nodavlat sektorning ishtirotini kengaytirish masalalarining huquqiy asoslarini yaratish; Turizm sohasiga ajratilayotgan sarmoyalar hajmini kengaytirish va mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga kredit imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida "Turizm taraqqiyot banki"ni tashkil etish; O'zbekistonda turizm sohasiga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maxsus loyiha ishlab chiqish va shu mavzuda xalqaro konferensiylar tashkillashtirish; "Aqli turizm" vositalaridan samarali foydalanish; Har bir turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektida turizm sohasida faoliyat yuritishda asos bo'luvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini yaratish va doimiy yangilab borish. Xulosa o'rniда, shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan huquqiy tartibga solish borasida katta yutuqlarga erishildi. Mazkur sohani rivojlantirish maqsadida tadbirkorlarga juda katta imtiyozlar va imkoniyatlar yaratib berilganligi soha rivojining asosiy omili bo'ldi. Shu bilan birga, ba'zi kamchiliklar va foydalanilmayotgan imkoniyatlar ham mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish va rivojlangan xorijiy davlatlarning ijobiliy tajribalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shima-chcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 sonli Farmoni. URL: <https://uzanalytics.com/qty-sodi%D0%8B5t/6667>
2. Barnabé Walheer, Linjia Zhang. Profit Luenberger and Malmquist-Luenberger indexes for multi-activity decision-making units: The case of the star-rated hotel industry in China // International Journal of Tourism Management, December 2022, pp. 1–11.
3. Кужеля Ю. Л. Туризм и гостеприимство. Учебник. Москва: Издательство Юрайт, 2023. 439 с.
4. Морозова Н., Морозов М. Информационное обеспечение туризма. Учебник. Москва: КноРус, 2021. 7 с.
5. Н. Хайдаров. Туризмни ривожлантиришда хорижий давлатлар тажрибаси. Очиқ иқтисодиёт: соғлом рақобат, бизнес мұхити, инвестицион мұхит жозибадорлиги / Халқаро амалий анжуман, ТДИУ Travel & Tourism Economic Impact 2022 world.
6. World Bank. Central Asia Tourism — A Driver for Development. 2021, October 31. URL: <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2021/10/31/central-asia-tourism-a-driver-for-development>
7. Review.uz. Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar. URL: <https://review.uz/oz/post/turizm-soasini-rivozlantiris-bujica-2021-jilda-amalga-osirilgan-islar>
8. European Travel Commission (ETC). European Tourism Insights 2020. Including Outlook for 2020. Market Intelligence Group of the ETC no. 2006/1, Brussels, April 2020.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100